



МУҒАЛЛИМ ҲӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ

Илимий-методикалық журнал

№ 4 2024



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки





МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2024

4-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

4-сан 2024

июль

Шолкемлестириүшилдер:

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендирүү Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы**

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Маңсет АЙЫМБЕТОВ
Нагмет АЙЫМБЕТОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ
Сапардурды АБАЕВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ
Интизар АБДИРИМОВА
Тұлқин АЛЛАЁРОВ
Мариғжон АХМЕДОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фарҳад БАБАШЕВ
Ботир БОЙМЕТОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Шахло БОТИРОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шымкент,
Қазақстан)
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ
Шохида ИСТАМОВА
Умида ИБРАГИМОВА
Лола ИСРОИЛОВА
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз,
Қазақстан)
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шымкент,
Қазақстан)
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Асқарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА
Хушбоқ НОРБҮТАЕВ
Улфат МАҲКАМОВ

Уролбой МИРСАНОВ
Сафо МАТЧОН
Шукурилло МАРДОНОВ
Камаладин МАТЯКУБОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Раъно ОРИПОВА
Бахтиёр РАХИМОВ
Фурқат РАЖАБОВ
Муқаддас РАХМАНОВА
Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Дилшода САПАРБАЕВА
Феруза САПАЕВА
Зайниддин САНАҚУЛОВ
Мухаббат САЛАЕВА
Қаҳхор ТУРСУНОВ
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Нурзода ТОШЕВА
Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Вохид КАРАЕВ
Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА
Қонысбай ЮСУПОВ



МАЗМУНЫ

ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Jalgasbaeva G.J. Kompetencyalyq qatnas tiykarında studentlerdiň ingliz tilinen leksikalıq kompetencyasın rawajlandırıw	7
Koshayeva S.K. Texnikaliq universitette shet tilin oqitiwdiň lingvistik qásiyetleri	12
Shamshetdinova G.A. Qoraqlapqoq tilini o'qitish metodlari	19
Nurova F.K. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi va fe'l+fe'l tarkibli qo'shma fe'llarni farqlash tamoyili	22
Ochilov A.D., Tojiyeva Z.Z. "Alfiyya" asarining yozilish sabablari va uning arab grammaticasidagi mavqeysi	27
G'ulomova X., Bakiyeva H. Ona tili darslarida organayzerlardan foydalanish usullari	31
Matkarimova S.Sh. Differensiallashgan adabiy ta'lim tizimida matn tahliliga doir adabiy-nazariy tushunchalar ustida ishlashning ilmiy metodik asoslari (Xalq dostonlari misolida)	37
Shermatova U.S. Badiiy asar qahramonlarining xarakter xususiyatlarini o'rganish asar tahlilining uziyi elementi sifatida	42
Абдуллаева Н.С. Теоретико-педагогические основы применения педагогических технологий в формировании иноязычной компетенции студентов	48
Курбонов Д.К., Каримов У.Р. Императивы и диспозитивы в языковых нормах русского языка	55
Эшанкулов Х.М. Не склоняемые имена прилагательные в русском языке	62
Egamberdiyeva N.X. The use of grammar in teaching english in primary education	70
Ismailova Ch.Sh. Needs analysis (na) in the development of english for specific purposes (esp) programs	81
Shoymukulov M.S. Socio-cultural competence is the main aspect in teaching foreign languages	93

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Пазылов А. Мәмлекетлик бағдарламада мектеп хәм педагогика бағдарындағы жоқары оқыу орынлары менен интеграцияны тәмийинлеү мәселеleleri	98
Aymuhamedova T. Tálimníň universal dizýný sharayatında oqıwshılardı psixologiyalıq-pedagogikalıq qollap-quwatlaw paradigmásı	104
Hamrayeva M. O'quv matnlarini bog'lanishli nutqqa oid ko'nikmalarini o'quvchilarда shakllantırısh	110
Исматова Д.Ш. Малакасини ошириш жараёнларида интеллектуал таълим тизимларидан фойдаланиш	114
Tuxtaboyev S.X. Ta'limda "TPACK" modeli asosida dars jarayonlarını tashkil etish metodikası	118
Suyunova N.A. Ta'limda mantiq tushunchasi va o'quvchilarда mantiqiy fikrlashni rivojlantırısh	122
Ishkobilov F.X. Virtual laboratoriyalar asosida o'quv jarayonini shakllantırısh metodikası	127
Buranova D.A. Bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislarining kompetensiyaviy samaradorligini oshirish masalalari to'g'risida	132
Maxmudov U.M. Yoshlarni harbiy Vatanparvarlik ruhidä tarbiyalashda buyuk sarkardalarning hayoti, jasorati va qahramonliklari haqidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimining tarbiyaviy ahamiyati	136
Allaberdiyeva K.X. Pedagogning kommunikativ kompetentligi	144
Alijonova M.R. Bo'lajak mutaxassis agronomlarni shaxsiy-kasbiy rivojlanlanishga yo'naltirish, integrativ yondashuvni takomillashtirish va ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish metodikasi	152
G'aynazarov B.D. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarini psixologik-pedagogik tavsiflari	158
Qambarov A.M. Bo'lajak mutaxassislarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning roli	163



BADIY ASAR QAHRAMONLARINING XARAKTER XUSUSIYATLARINI O'RGANISH ASAR TAHLILINING UZVIY ELEMENTI SIFATIDA

Shermatova U.S.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasи dotsenti*

Tayanch so'zlar: obraz, xarakter xususiyati, personaj, tashqi qiyofa, vaziyat, buyumlar tasviri.

Ключевые слова: образ, черта характера, характер, внешний вид, ситуация, изображение предметов.

Key words: image, character trait, character, appearance, situation, image of objects.

Badiiy adabiyotning asosiy mazmunini kishilarning jamiyatdagi tutgan o'rnini, o'zaro munosabat va aloqalarini tasvirlab ko'rsatish tashkil qiladi. Tanqidchilar obrazni kishi hayotining suratidir deya talqin qiladilar. Asarda tasvirlanadigan kishilar obrazi – asarning asosiy tarkibi sanaladi.

Yozuvchi personajning obrazini yaratishda tanlangan mavzusiga aloqador ma'lumotlarni, tajribalar va o'z shaxsiy nuqtai nazarini obrazning harakat va xususiyatlari, dunyoqarashi vositasida tasvirlaydi. Muallif hayotni qanday tushunsa, uni qanday ko'rishni istasa, ana shu istaklarini obrazda mujassamlashtiradi.

Ma'lumki, personajlarning xarakterli xususiyatlarini o'rganish asardagi voqealar yo'nalishini va qahramonning ayrim epizodlardagi harakatini kuzatish yo'li bilan amalga oshiriladi. Personajning voqealar rivojidagidagi ishtirotki asar voqeasini bayon qilish orqali o'rganib boriladi.

Qahramonga umumlashma-xulosalar, mantiqiy yakun chiqarish yo'li bilan emas, balki uning ayrim xususiyatlarini imkon boricha aniqlash orqali tavsiif beriladi.

7-sinf o'quvchilariga qahramon xarakterining faqat ba'zi xususiyatlarini aniqlash uchun har qanday asarni emas, balki tushunilishi yengilroq va

personajning o‘ziga xos xususiyatlarini bermalol aniqlash mumkin bo‘ladigan asarlar tavsiya qilinadi.

Ma’lumki, badiiy asarlarda yagona syujet hamda uning rivojida qahramonning ayrim personajlar bilan munosabat va to‘qnashuvlari tasvirlangan epizodlar bo‘ladi. Shu epizodlar yig‘indisi asarning umumiyligi mazmunini tashkil qiladi. Shuning uchun ham qahramonni o‘rganish jarayonida ayrim epizodlarni o‘rganib borish qulay va osonroq yo‘ldir.

7-sinfda asar qahramonining xarakterini o‘rganishda birinchi galda yozuvchining qahramon haqidagi fikri va unga munosabatini aniqlash kerak. Buning uchun asarni tahlil qilishda o‘quvchilarning asosiy e’tibori shu masalaga qaratiladi. Keyin esa asar syujetining rivojida shu fikrning davomi kuzatib, o‘rganib boriladi. Syujetning rivojida o‘rganilayotgan qahramonning shu syujetda ishtirok etayotgan personajlarga qanday munosabat va muomalada bo‘layotganligi ham o‘rganiladi. Natijada o‘quvchilar qahramonning ma’lum xususiyatlari haqida tasavvur hosil qiladilar.

Ma’lumki, 7-sinf maxsus adabiyot dasturida Rasul Xamzatovning ijodi o‘rganiladi. Shoирning “Mening Dog‘istonim” asaridan olingan parchada shoирning o‘z ona tili haqidagi o‘y-fikrlari aks etgan. O‘quvchilar Abutolib obrazining xarakter xususiyatlarini tahlilga tortishdan avval so‘z qudratini tavsiflovchi “Til” matni bilan tanishadilar.

O‘quvchilar matn bilan tanishganlaridan so‘ng, Abutolib obraziga to‘xtalishadi va uning voqelar rivoji jarayonida qilgan ishlarini so‘zlab berishadi. Abutolib hayotiga oid voqealar atrofidagi bu suhbatdan keyin, shu obrazga xos xususiyatlarni aniqlashga kirishiladi. Abutolib obrazini tahlil qilish va uning xarakterli xususiyatlarini aniqlash uchun bir necha muhim savolga javob topish lozim bo‘ladi.

1. Abutolib nima maqsadda Moskva ko‘chalarida aylanib yurgan yo‘lovchiga murojaat qiladi?

2. Ingliz sayyohi qaysi tillarda unga savolni tushunmaganligini aytadi?

3. Abutolib ingliz sayyoohiga qaysi tillarda savol bermoqchi bo‘ldi?

4. Abutolib madaniyatli dog‘istonlik bilan uchrashganda o‘zini qanday tutdi?

O‘quvchilarning shu savollarga bergan to‘g‘ri javoblari Abutolibning xarakteristikasini tashkil qiladi. O‘z xalqining tilini saqlashda, kelajak avlodni savodli qilishda, qo‘shtirnoq ichidagi madaniyatilarga qarshi kurashda mardlik ko‘rsatgan Abutolibning barcha xususiyatlari o‘quvchilarga manzur bo‘ladi.

O‘quvchilar Abutolibdagi adolatparvarlik, tilparvarlik, xalqparvarlik va do‘stlik xususiyatlarini aniqlagach, uni boshqa asarlardagi qahramonlarga tenglashtirsiba bo‘ladimi? – degan masalaga kelib to‘xtaydilar. Bu o‘rinda o‘qituvchi har bir asarga va uning qahramoniga tarixan baho berish kerakligi haqida



alohida tushuncha berishi zarur. Chunki qahramonlik, do'stlik, xalqparvarlik tushunchalari zamonasiga ko'ra nisbiydir.

Bundan tashqari, davr va hayot sharoiti turlicha bo'lgan kishilarning tushuncha doirasi ham turlicha bo'ladi. Fazilatlar ham ma'lum bir davr kishisida zamonasi saviyasiga qarab cheklangan bo'lishi, ikkinchisida esa bu fazilatlar chuqur mohiyatga ega bo'lishi mumkin. Shu tufayli o'qituvchi o'quvchilarning Abutolibning tilparvarligini Maxtumquli she'rlarida qahramoniga tenglashtirsa bo'ladimi? Degan savoliga to'la javob berishi kerak.

Qahramonning barcha xususiyatlari aniqlangach, uning xarakteristikasiga oid bo'lgan mashg'ulot yakunlanadi. Nihoyat, o'quvchilar "Til madaniyat belgisi" mavzusida insho yozadilar. Bu inshoda syujet voqealari asosida Abutolibning ba'zi xususiyatlarini yoritish maqsad qilib olinadi.

Ijod ixtisoslashgan maktablar maxsus adabiyot darslarida jahon adabiyotini o'rganishda katta e'tibor qaratilgan. Dastur bo'yicha 7-sinfda Rasul Xamzatovning "Mening Dog'istonim" esesi bilan bir qatorda Chingiz Aytmatovning "Birinchi muallim" qissasidan parcha, Mark Tven hikoyalarini o'rganish ko'zda tutilgan. Chingiz Aytmatovning "Birinchi muallim" hikoyasini ko'rib o'taylik. "Birinchi muallim" qissasidan olingan parchada bir vaqlar Toshtanbek otasi ovuldan chiqib ketgan Dyushen muallimning mashaqqatli hayotini tasvirlovchi asardir.

Darslikda Dyushen muallimning ovul bolalarini savodli qilish yo'lida duch kelgan qiyinchiliklari va muallim o'qitgan o'quvchilarning kelajakda chin inson bo'lib yetishganlari tasvirlangan. Bu hikoyada deyarli ma'lum voqeanning rivojini ko'rsatuvchi syujet bo'rtib ko'zga tashlanmasa ham, ovulda yangi maktab ochilishi va unda ovuldan chiqqan akademik Oltinoy Sulaymonovaning Dyushen muallim bilan bog'liq xotiralari bayon etilgan. Dyushen muallimning tavsifiga oid o'rnlarni aniqlash maqsadida avval o'qituvchi reja tuzadi, o'quvchilar esa shu rejadagi mazmunni ifodalovchi o'rnlarni matndan aniqlaydilar. Bu xarakteristika quyidagicha bo'ladi.

Dyushen obrazining xarakterli belgilari.

Tashqi qiyofasi. "Men Duyshe ismli bu kishini uncha yaxshi bilmas edim. U keksayib qolgan, baland bo'yli, sersavlat, burgut qovoqli odamni eslatardi."

"...ovulimizda men ilgari ko'rmagan askar shinelli notanish yigit paydo bo'lib qoldi. Uning shineli, negadir, qora movutdan tikilganligi uchun ham eslab qolgan edim"

Kishilar bilan muomalasi.

Ular olovga yaqinroq o'tirisharkan, Qartanboy bir xo'rsinib qo'ydi-da, bamaylixotir: – Bo'lar ish bo'lди, taqdirda bitilganidan qochib qutulib bo'larmidi. O'zing ham yo'lga munchalik kech chiqmasang? – Markazda majlis cho'zilib ketdi, Qarake. Ishlarni bitirib keldim. – Bunisi yaxshi bo'libdi. Xo'p, shunday



ekan, tunab qolib, ertasiga ertalab yetib kelganingda hech kim yoqangdan tutmas edi-ku. – Bolalarga bugun yetib kelaman, deb va'da bergen edim, ertaga ertalab darsni boshlaymiz, – javob qaytardi Duyshen. – Eh, nodon-e! – deya hatto o'rnidan sapchib turib ketdi Qartanboy va g'azablanganidan boshini sarak-sarak qilgancha: – Eshityapsanmi, kampir, u bolalarga, shu mishiqi tirranchalarga va'da bergen emish! Agar biron falokat yuz berganda nima bo'lar edi. Nima deyayotganining tushunyapsanmi o'zi!? – Bu mening muqaddas burchim, jonajon ishim, Qarake.

– Menga achinib gapirayotganingizni tushunib turibman, Qarake. Faraz qilaylik, agar shu norasida bolalar ham maktabni, o'qishni nima keragi bor, o'qib kim bo'lardik, deb turishsa, unda hukumatning ishi, kelajagimiz nima bo'lardi? Men uchun o'qituvchilik ko'rgilik emas, Qarake, qaniydi qo'limdan kelsa bolalarga yaxshiroq bilim bersam, asosiy orzu-niyatimga erishgan bo'lardim.

Vaziyat va buyumlar tasviri

Qartanboy otaning ko'zi endi ilinay deganda kuchli shamol turib, uning tinchini buzdi. Telbalangan dovul panjalari bilan tom bo'g'otlariyu oynaklarni timirsiklab timdalab, hamma yoqni ostun-ustun qilib yuborguday. Tashqarida esa yalatma izg'irinning devorlarga kelib urilayotgani eshitilib turardi.

Yozuvchining Dyushenga munosabati. “Qolaversa, o'zimni aybdor sanashimning yana bir sababi shundaki, yangi maktabning ochilish marosimida barcha izzat-ikromlar menga emas, balki boshqa bir tabarruk insonga qaratilishi va faxrli o'ringa meni emas, balki uni o'tkazish kerak edi, deb o'ylayman. Bunga avvalo, ovulimizning birinchi muallimi – qariya Duyshen sazovor edi... Yoshlar Duyshenning o'z davrida qanday muallim bo'lganini bilishmaydi. Katta avlod vakillaridan ko'pchiligi esa endi yo'q. Duyshenning shogirdlaridan ko'pchiligi urushda halok bo'lgan, ular chinakam jangchilar bo'lganlar. Muallimimiz to'g'risida yoshlarga so'zlab berishga burchli edim. Mening o'rnimda boshqa bo'lganda ham shunday qilgan bo'lardi... Men hali muallimim huzuriga borib, hammasiga javob berib, undan kechirim so'rayman. Keltirilgan shu misollar Dyushenga xos bir qancha xususiyatlarni ko'rsatadi.

O'quvchilar matndan muallimning kiyimi, portreti, kishilar bilan muomalasi, yashash sharoiti va uy jihozlari tasvirini topa oladilar. Lekin Chingiz Aytmatovning Dyushenga munosabatini, uning haqidagi fikrlarini aniqlashga qiynaladilar. Chunki yozuvchi Dyushen haqidagi fikrlarini ochiq ifoda qilmaydi. Bu o'rinda o'qituvchi yozuvchi O'z fikr va maqsadlarini o'ziga manzur bo'lgan personaj tilidan ham bayon qilishi mumkinligini uqtirib o'tadi. Shundan so'ng o'quvchilarning e'tibori Oltinoy bilan Dyushen muallimning munosabatlariga, uning muallimiga "allaqanday aybdorlik hissi bilan" qarashiga jalb etiladi. Shu "aybdorlik hissi" Aytmatovning Dyushen muallimga munosabatini bildiradi.



O'quvchilarning reja asosida tanlagan sitatalari og'zaki xarakteristika uchun material bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilar tanlagan materiallarini ko'zdan kechirgach, og'zaki tavsiftuzishga kirishadilar. Tavsifnomadan oldin asarning muallifi, kim haqida yozilganligi aytiladi, keyin muallimning tavsifi so'zlab beriladi.

Yuqoridagi misollarda asar qahramonining tavsifnomasini tuzishda asar voqeasining yo'nalishiga, syujetning rivojiga qarab personajning xususiyatlarini aniqlash namunasi ko'rib o'tildi. Bu misollarda avval personajning alohida xususiyatlari o'rganilib, keyin shu xususiyatlar ma'lum tartibga tushirildi, shu tariqa, obraz xarakteristikasi hosil bo'ldi.

8-sinfdagи obrazlar xarakterini o'rganish o'zining anchagina murakkab tomonlari bilan oldingi sinfdagi xarakteristika tuzish mashg'ulotlaridan tubdan farq qiladi. Birinchidan, endi personaj tahliliga adabiyot nazariyasi talablari nuqtai nazaridan yondashish kerak, ikkinchidan, personajning qanday tasvirlanganligini emas, balki yozuvchi shu tasvir orqali nima demoqchi ekanligini aniqlash lozim. Odatta yozuvchining personaj haqida nima deyayotgani masalasi mantiqiy xulosalar chiqarish yo'li bilan o'rganiladi. Demak, bu yerda obrazlar faqat tahlil qilinib qolmay, balki shu tahlildan sintez ham chiqariladi. Agar ayrim tabaqalar yoki guruhlar o'rtasidagi to'qnashuv asar voqeasining kolliziyasini tashkil etsa, ko'pincha ayrim qahramonlar ma'lum tabaqalarning namoyondasi bo'lib qatnashadilar. Shunday qilib, kolliziya sirdan qaraganda ayrim personajlarning to'qnashuvidek voqelik orqali ifodalanadi. Modomiki, badiiy asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalar biror tarixiy davrning tasviri, kishilarning yashash va kurash tarixi ekan, badiiy asarga ham unda aks etgan tarixiy sharoit talablari nuqtai nazaridan yondashishga to'g'ri keladi. Ikkinchidan, badiiy asar personajlari o'z davri kishilarining deyarli ko'pchiligiga xos bo'lgan xususiyatlarni aks ettiradi. Shu tufayli bu personajlar o'z maslakdoshlarining tipik namunalari bo'ldi.

8-sinfda asar qahramonlari xarakterini o'rganishda shu personajning tirikligi, bu tipiklikni tashkil etuvchi obraz xarakterining (undagi barcha xususiyat va fazilatlarning ma'lum tarixiy sharoit mahsuli ekanligi aniqlanadi. Shuning uchun ham obrazning xarakterli belgilari, yuqorida ko'rib o'tilganidek, ayrim episodlar yuzasidan emas, balki asar voqeasining boshidan oxirigacha namoyon bo'lib boruvchi fazilatlarning umumlashmasi tariqasida o'rganiladi. Hali bunday yaxlit xulosalar chiqarishga odatlanmagan o'quvchilarning anchagina qiynalishlari, asosiy belgilarni aniqlashda o'qituvchining yordamiga ehtiyoj sezishlari tabiiy holdir.

8-sinfda Maqsud Shayxzodanining "Jaloliddin Manguberdi" dramasi o'rganiladi. Jaloliddin obrazidagi murakkab xususiyatlarni aniqlash uchun uni tarbiyalab yetishtirgan davr sharoitini bilish lozim. Asarda tasvirlangan davr haqida ma'lum



tushuncha hosil qilmay turib unda ilgari surilgan muhim masalalarni to‘la anglab bo‘lmaydi.

O‘quvchilar dramaning birinchi pardasi, birinchi ko‘rinishi bilan tanishadilar. O‘qituvchi asar tahliliga kirishishdan oldin dramaning umumiy mazmuni haqida, ayniqsa sinfda o‘rganilmaydigan qismlar to‘g‘risida ma’lumot beradi. Shu ma’lumotdan oldin tarixiy davr, asardagi qahramonlarning qaysi tabaqaga mansubligi tushuntiriladi.

Drama maydonga kelgan davrdayoq u tarixiy asar deb hisoblangan edi. Buning sababi shuki, asarda tarixiy voqealar tasvirlangan edi. Ma’lumki, mo‘g‘ul bosqini Movaraunnahrda zulmning haddan oshgan ko‘rinishi edi. Vatan ozodligi mavzusi asar yozilgan davr Ulug‘ Vatan urushi yillari uchun alohida dolzarblik kasb etgan edi. O‘quvchilar buni darslikda Usmon Yusupov bilan bog‘liq voqealarning keltirishi orqali bilib oladilar. Otasi Xorazmshohdan farqli o‘laroq Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ul bosqinchilariga bo‘yin egmay, dushmanga tik boqadi. Bu yo‘lda o‘z yaqin kishilari, oilasini ham qurban qiladi. O‘quvchilar jasurlik, qiyinchiliklarda ham ortga chekinmaslik Jaloliddin obrazining muhim jihatlaridan biri ekanligini asar bilan tanishish jarayonida anglay boradilar.

Mo‘g‘ul bosqini haqidagi tarixiy dalillar haqida qisqacha ma’lumot berilishi lozim. Bu tarixiy voqealar o‘quvchilarda Jaloliddin Manguberlining olijanob fazilatlariga havas uyg‘otadi.

Jaloliddin obrazining tavsifi tarixiy sharoit haqidagi ma’lumotlar bilan yoritilsa, uning barcha insoniy fazilatlari o‘quvchilarga yaxshi tushuniladi.

Xulosa qilganda, o‘quvchi badiiy asar bilan tanishar ekan, yangi voqealarni bilibgina qolmay, balki uning hayot haqidagi tushunchasi boyiydi, unda ma’lum his, ta’sirlanish hosil bo‘ladi. Bu ta’sirlanish estetik zavq bag‘ishlashdan tashqari, fikrlashga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Dolimov S., Ubaydullayev X., Axmedov Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma.- T.: “O‘qituvchi” 1967.
2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Darslik. T.: “Innovatsiya-ziyo” 2022.
3. Sirojiddinov Sh., Karimov B., Rizayev Sh., Turdimov Sh., Adizova I., Tilavov A., Yusupova D. Maxsus adabiyot 7-sinf uchun darslik: 2021.
4. 8-sinf adabiyot darsligi (II qism) [Matn] : darslik / J. Nurmuhhammadov, S. Qambarova, O. Olimjanov, M. Yuldasheva, S. Inomjonova . - Toshkent: “Adast poligraf”, 2022 .

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola asar tahlili ijodiy jarayon sifatida o‘quvchilar faoliyatining murakkab jihatlari, tahlil jarayonini to‘g‘ri tashkil etish masalasi yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассмотрены сложные аспекты анализа работы как творческого процесса студентов, вопросы правильной организации процесса анализа.

SUMMARY

This article describes the complex aspects of the work analysis as a creative process of students, the issue of the proper organization of the analysis process.